

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI



PEDIATRIYADA INTENSIV DAVO

MODULI DASTURI

Bilim sohasi: 900 000 - Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’milot

Ta’lim sohasi: 910 000 - Sog’liqni saqlash

Mutaxassislik: 70910303 - Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi

Toshkent – 2022

Tuzuvchilar:

YUsupov A.S. - ToshPTI Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Talipov M.G. ToshPTI Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi:

SHaripov A.M. ToshPTI SHoshilinch pediatriya. Tabiiy ofatlar kafedrasi mudiri, professor,t.f.d.

Tashqi taqrizchi:

Satvaldiyeva E.A. TXKMRM Pediatriyada anesteziologiya va intensiv terapiya kafedrasi mudiri, professor, t.f.d.

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyat instituti ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyat instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2022 yil "31" avgust "314" – sonli buyruq 3- ilova).

1. O'quv modulining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Pediatriyada intensiv davo anesteziologiya va reanimatologiya, intensiv terapiya bilan bitta klinik fanning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bo'limidir. U reanimatologiya fanining tarkibiy qismi bo'lib, zamonaviy qarashlar bo'yicha operativ muolaja bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim a'zolar faoliyatini o'rganish va boshkarishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Pediatriyada intensiv davo fani xar xil kritik holatlarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va davosini o'rganadi.

Tibbiyotni zamonaviy talab darajasida isloh qilishda raqabotbardosh anesteziolog va reanimatolog mutaxassislarga bo'lgan talab oshib bormoqda. SHu tufayli o'quv dasturida magistrlarni shu kun talabi darajasida tayyorlash uchun katta ahamiyat berilgan.

Mutaxassislik bo'yicha nazariy o'qitish seminar mashg'ulotlari tarzida o'tkaziladi.

Amaliy o'qitish (magistrlik amaliyoti) bolalar kasalxonalarining reanimatsiya va intensiv terapiya yo'nalishdagi bo'limlarida o'tkazilib, bu yerda magistrlar har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko'nikmalar ro'yxatiga ko'ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo'shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, davolash diagnostika muolajalarni amalgalash oshiradilar.

2. O'quv modulining maqsadi va vazifasi

2.1. Modulning maqsadi:

Modulni o'qitishdan maqsad – yuqori malakali bolalar anesteziolog- reanimatolog shifokorini tayyorlash. Bolalar anesteziolog-reanimatolog shifokori zamonaviy ilm va amaliyotga bo'lgan talablarga javob berib, zamonaviy klinik tekshirish usullarni, tibbiyotda qo'llanilayotgan yangi texnologiyalarni qo'llashni, bolalarda uchraydigan turli kasallikkarda mustakil ravishda intensiv davo o'tkazish metodlarini mukammal bilishlari kerak.

2.2. Modulning vazifalari:

Modulda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asoslangan quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- bolalarda uchraydigan turli kasallikkarda oid ularning og'ir variantlari, premorbid xolga bog'liq xolda har-xil shaklda kechishi, o'ziga xos klinik alomatlarga ega bo'lganligi, aloxida alomatlar va sindromlarning differential diagnostik axamiyatini, funksional diagnostikasi va laborator diagnostikasini, xamda kasallikkarda noan'anaviy davo o'tkazish uslublari, tez tibbiy yordam

ko'rsatish ko'nikmalarini to'liq egallagan, yuqori malakali bolalar anesteziolog-reanimatolog mutaxassisiga sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishni;

-O'zR SSV tizimida bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi yo'naliishga mo'ljallangan turli bo'limlari, shu bilan birga, viloyat, tuman bolalar shifoxonalarida va markazlarida, shaxar akusherlik komplekslarini ma'muriy boshqarish, Davlat ilm-fan va ta'lim qo'mitalarida ishlashni;

-tibbiyot oliy o'quv yurtlari kafedralarida pedagogik faoliyat ko'rsatishni;

-mutaxassis shifokorlar bilan hamkorlikda bolalardagi turli kasalliklarni tashhislash, davolash va oldini olishning yangi texnologiyalari bo'yicha tematik sikllar, uslubiy seminarlar va maslahatlarni tayyorlash va o'tkazish, audit o'tkazishni;

-intensiv davo o'tkazilishi kerak bo'lgan bemor bolalarga ambulator va statsionar sharoitida kerakli va adekvat intensiv davo muolajalarini amalga oshirishni;

-bolalarda turli intensiv davo o'tkazishni talab qiladigan patologik holatlarini va bolalarda turli somatik kasalliklarni tashhislash, davolash va profilaktikasi bo'yicha yangi texnologiyalarni qidirish va ishlab chiqish, olingan natijalar va tekshiruvlar natijalarini tahlil etish, jamlash va amaliyotda qo'llashga erishishni;

- bolalarda turli intensiv davo o'tkazishni talab qiladigan patologik holatlarini va bolalarda turli somatik kasalliklarni kelib chiqish xavf omillari bo'yicha tekshiruvlarni, shu bilan bir qatorda ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni;

- bolalarda har-xil kasalliklardan keyingi asoratlar, yondosh ichki a'zolar kasalliklari, shuningdek xavf omillarini, patogenezini o'rganish va patologik jarayonlarni modellashtirishni o'zlashtirish bilan tanishtirishdan iborat.

2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Magistratura talabasi:

- sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati haqida;

- O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'naliishlari) haqida;

- sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan isloxoqtalar haqida;

- sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to'g'risida;

- tibbiyotning zamонавиyy muammolari va rivojlanishining magistral yo'naliishlari, ichki a'zolar kasalliklari diagnostikasi va davolashda yangi texnologiyalari haqida;

- reanimatsion kasalliklarining epidemiologik ma'lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta'siri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, diagnostikaning, shu jumladan erta diagnostikaning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash sxemalari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining terapevtik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar to'g'risida;
- kritik xolatlarni davolash jarayonida komp'yuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;
- vrachlik amaliyotida «komanda» bo'lib ishlash tamoyillarini;
- ichki a'zolar kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
- ichki a'zolar kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezining zamonaviy teoriyasi, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini o'tkazishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- yurak, volemik status, tomirlar tonusining funksional holatini xarakterlovchi qon aylanish ko'rsatkichlari asosida o'tkir yurak-tomir yetishmovchiligi shakllarini tashhislash va differensiatsiyalashni;
- barcha turdag'i shok xolatlari, chap qorincha yetishmovchiligi, o'pka shishi, yurak ritmining buzilishi, shuningdek shok asoratlarining (DVS – sindrom, o'tkir buyrak yetishmovchiligi va ularning intensiv terapiyasining barcha umumiy va maxsus uslublarini uddalashni;
- klinik o'lim holatini bila olish (anglash), qon aylanishining va nafas olishning to'htashida yurak-o'pka reanimatsiyasining asosiy va maxsus (ixtisoslashtirilgan) uslublarini uddalashni;
- reanimatsiyadan keyingi davrdagi bemorlarning intensiv terapiya uslublarini uddalashni;
- respirator terapiyaning zamonaviy uslublari, nafas olish yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash uslublarini uddalashni (traxeya intubatsiyasi, konikotomiya);
- turli xil o'pka patologiyalarida ventilyatorlar vositasida o'pkada sun'iy, hamda uzoq muddatli ventilyatsiyani amalga oshirish va ko'rsatkichlarini aniqlashni;
- massiv pnevmoniya, asmatik status, o'pkaning og'ir bronxoobstruktiv kasalliklarida, tashqi nafas olish appratlarining travmatik shikastlanishi va boshqa xolatlarda konservativ kompleks intensiv terapiya uslublarini uddalashni.
- turli xil etiologiyali komatoz holatlarida bemorlarning intensiv terapiyasining umumiy va maxsus uslublarini to'liq hajmda uddalashni.
- o'tkir zaharlanishlar intensiv terapiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan uslublarini uddalashni (nafas sistemasi, qon aylanishlarining buzilishlarining

korreksiyasi, organizmdan toksik moddalarni chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar, antidot terapiya);

- tabiiy va sun'iy detoksikatsiya uslublarini uddalashni: oshqozon-ichak traktining lavaji, forsirlangan diurez, turli xil enterosorbsiya, ekstrokorporal detoksikatsiya uslublarini o'tkazish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalarni aniqlay olishni.
- operatsiyadan chiqqan bemorlarni qabul qilish, operatsiya va anesteziyaning kechish xususiyatlarini baholash, hayotiy muhim tizimlar va organlar funksiyalari holatini baholashni;
- nafas sistemasi, qon aylanishi, volemik va biokimyoviy status ko'rsatkichlar asosida bemorlarni tekshirish va olib borish rejasini belgilashni;
- jarrohlik statusi va dastlabki operatsiyadan keyingi davrdagi boshqa asoratlar holatini nazorat qilish, profilaktika va davolash uslublarini (jarroh bilan hamkorlikda) uddalashni;
- barcha zaruriy tibbiy hujjatlarni to'liq hajmda olib borishni;
- qon aylanishi, klinik va biokimyoviy ko'rsatkichlar funksiyalarining holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar asosida infuzion-transfuzion terapiya hajmi va komponentlarini hisob-kitob qilishni;
- periferik va magistral venalar infuzion-transfuzion terapiyasining texnik ta'minotining barcha uslublarini, infuzion-transfuzion terapiyaning adekvatlilik va samaradorligini nazorat qilish usullarini uddalashni;
- turli xil kritik holatlarda organizmning energiya sarf qilish darajasini aniqlashni, parenteral oziqlanishni olib borishda asosiy oziqlanish nutriyentlar hisob-kitobini o'tkazishni;
- infuzion-transfuzion terapiya asoratlarini davolash va profilaktikasini o'tkazishni;
- periferik va magistral vena qon tomirlari (o'mrovosti, son venalari) puksiyasi va kateterizatsiyasini, veneseksiya, lyumbal punksiya, plevral bo'shliq punksiyasi, mikrotraxeostomiya, konikotomiya, traxeotomiya; gemotransfuzion operatsiyalar: to'g'ridan-to'g'ri qon quyish, gemodilyutsiyali operatsiyadan oldingi eksfuziya, reinfuziya **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modulda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

3.2. Moduldagi amaliy (seminar,) mashg'ulotlari mavzulari tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar mul'timediya qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga ilmiy unvon (ilmiy daraja) ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning

falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlar maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzulari ro'yxati:

1 semestr

№	Seminar mashg'ulotlar mavzusi.
1	Bolalar intensiv terapiyasi xizmatini tashkil etish.
2	Bolalar anesteziya, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining apparat va jihozlari
3	Bolalar intensiv terapiyasining anatomo-fiziologik jihozlari
4	SHoshilinch yordam va bolalar intensiv terapiyasining asosiy muammolari
5	Intensiv terapiyada invaziv va noinvaziv gemodinamika monitoringi
6	Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limida joylashgan bolalarni intensiv parvarishlash
7	Postreanimatsion kasallik Postreanimatsion kasallikning asosiy sabablari, patofiziologiyasi, klinika va diagnostikasi

2 semestr

1.	Bolalarda o'tkir nafas yetishmovchiligi
2.	O'NE bo'lган bolalarda yuqori nafas yo'llarini diagnostik tekshirish metodlari
3.	Oqsil-energiya yetishmovchiligidagi davo-taktik tadbirlar. Bolalarda oziq moddalar va energiyaga talab. Parenteral oziqlantirishni xisoblash. Parenteral oziqlantirishni biokimyoviy asoslari.
4.	Bolalarda kon aylanishining o'tkir buzilishi
5.	Klinik shok
6.	Endokrin faoliyatini o'tkir buzilishi
7.	Bolalarda operatsiyadan keyingi davrdagi intensiv terapiya xususiyatlari

1.	Metabolizm va gidroterapiya, gemodinamik yordam
2.	Asoratsiz erta operatsiyadan keyingi davrda intensiv terapiyaning spetsifik xususiyatlari
3.	Asoratli erta operatsiyadan keyingi davrda intensiv terapiyaning spetsifik xususiyatlari
4.	CHaqaloqlarda shoshilinch holatlar klinik fiziologiyasi. CHaqaloqlarga birinchi va shoshilinch yordam.
5.	CHaqaloqlarda perinatal patologiyaning o'tkir davri. CHaqaloqlarda yurak qon tomir sistemasi patalogiyasining intensiv terapiyasi
6.	CHaqaloqlar sariqligi. CHaqaloqlar qon kasalliklarida shoshilinch terapiya ko'rsatish
7.	CHaqaloqlarda asosiy xirurgik kasallikkarda erta operatsiyadan keyingi davrdagi intensiv terapiya xususiyatlari. CHaqaloqlarda siyidik ayirish sistemasi patalogiyasida intensiv terapiya

3.2.2. Amaliy(seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.
- Markaziy (o'mrov osti va ichki bo'yinturuk) va periferik venalarni kateterlash va bu uchun ko'rsatmalarini aniqlash, bajarilayotgan infuziyalar nazoratini amalga oshirish;

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar**Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:**

UK 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandard vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O’z-o’zini rivojlantirishga, anglashga, o’qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo’llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo’llashga tayyorlik;

UKK 1 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og’zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko’rsatishni ta’minalashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko’rsatishda ko’zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

UK- umumiy kompetensiya

UKK – umumiy kasbiy kompetensiya

Modul davomida egalanadigan amaliy ko’nikmalar ro’yxati:

1 semestr

Nº	Amaliy ko’nikmalar ro’yxati
1.	Nafas yo’llarini patologik tarkibdan tozalash;
2.	Oksigenoterapiya usullari;
3.	Portativ respirator yordamida nafas berish;
4.	Laringeal niqob yordamida nafas berish;
5.	Respirator terapiyada CPAP usulini o’tkazish;
6.	Respirator terapiyada uzaytirilgan o’pka sun’iy ventilyatsiyasini parametrlari;
7.	Respiratorga moslashish;

8.	Respiratordan uzish;
9.	O'pka sun'iy ventilyatsiyasidan spontan nafas oldirishga o'tkazish;
10.	Traxeostomali bemorlarni parvarishlash;
11.	Gaz almashinuvini kuzatish, shamollatish uskunalarini va asboblarini sterilizatsiya va dezinfeksiyalash;
12.	Plevra bo'shlig'ini punksiyasi va drenajlash;
13.	Vibratsiyali ko'krak massaji o'tkazish;

2-semestr

1.	Kislota-ishqorli holatni taxlili uchun qon olish;
2.	Elektrotravmada intensiv davolash;
3.	Val'dman apparati yordamida markaziy vena bosimini o'lchash;
4.	Dozalovchi infuziya uchun dorini xisoblab infuzatordan foydalanish;
5.	Xayot uchun muhim bo'lgan tibbiy asboblardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
6.	Markaziy va periferik venalarni kateterlash uchun ko'rsatmalarni aniqlash va bajarilayotgan infuziyalar nazoratini amalga oshirish;
7.	Lyumbal punksiya bajarish texnikasi;
8.	Bolalarda gipertermik sindromida intensiv terapiya o'tkazish;
9.	Klinik va laboratoriya ma'lumotlari asosida suv-elektrolitlar almashinuvi buzilishida suyuqliklar hajmini hisoblash;
10.	Klinik va laboratoriya ma'lumotlari asosida kislota-asos sharoitidagi buzilishlarni aniqlash va ularning korreksiyasi;
11.	Septik sharoitda intensiv davolash;
12.	Politravmalarda: ko'krak qafasi shikastlanishi, bosh miya jarohatida intensiv davolash;

3-semestr

1.	Kuyishda intensiv davolash;
2.	Gemodializ, peritoneal dializ, gemosorbsiya, plazmafarez va boshqa detoksikatsiya usullari uchun ko'rsatmalarni aniqlash;
3.	Parenteral oziqlantirishni hisoblash va infuzion terapiyani o'tkazish;
4.	Zond orqali oziqlantirishni hisoblash va o'tkazish;
5.	Peritonit, diareya, ichak falaji, quşish sindromlarida oshkozlonni zondlash, enteral oziklantirish o'tkazish;
6.	Bolalarda parenteral oziqlantirishni hisoblash va o'tkazish;
7.	Plevra bo'shlig'ini punksiyalash va drenajlash, ko'krak qafasida vibratsion massajini o'tkazish;
8.	EKG monitoringini o'tkazish, yozish va sharplash;
9.	EEGni yozish va ma'lumotlarini sharplash;
10.	YUrak aritmiyalarida elektrosimulyatsiya va intensiv terapiya o'tkazish;
11.	Eklampsiyada, nefropatiyada, akusherlik qon ketishida intensiv davolash;
12.	Ekzogen va endogen zaharlanishni gemosorbsiya o'tkazib intensiv davolash;
13.	Diabetik ketoatsidoz, feoxromotsitoma krizi, tireotoksič krizda intensiv terapiya;
14.	Siydik pufagini kateterlash, diurezni o'lchash va jadallashtirilgan diurezni o'tkazish;

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy ishlar ko'p tarmoqli klinikalarning, xirurgik, somatik va infektion shifoxonalarning reanimatsiya va jadal davolash bo'limlarida, tez yordam bo'limlarida o'tkaziladi. Ilmiy – tadqiqot yoki ilmiy – amaliy ishlar ikki tomonlama kelishuv asosida O'zbekiston Respublikasi Akademiyasining ilmiy markazlarida va chet el tibbiyot tashkilotlarida o'tkazilishi mumkin. Ilmiy – amaliy ishlar hajmi, tashkillashtirilishi va ta'minlanishi kadr talabgorlari bilan kelishilgan holda kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi. Ilmiy – amaliy ishlar yuqori malakali bolalar

anesteziolog – reanimatologlarini shakllantirishni ko’zda tutadi. Ilmiy – amaliy dasturlarning asosiy talabi malakali mustaqil ishlash uchun kerak bo’ladigan to’liq hajmlı amaliy ko’nikmalarni o’rganish va o’zlashtirishni nazorat qilish. Buning uchun tematik sikl yoki rotatsiyalar ishlab chiqarilgan. YAni bir asosiy talab bu – magistrlarning davolash jarayonida ishtirokclarini sekin – asta, bosqichma – bosqich oshirib borish.

Malakaviy amaliyat davrida magistratura talabasi kunma-kun malakaviy amaliyat jurnali shaklida to’ldirib boradi. Amaliyat rahbari tomonidan har bir amaliyat kuni davrida bajarilgan ishalar hajmi baholanadi va kundalik imzolanadi.

Malakaviy amaliyat jurnalidagi ma’lumotlar talabaning amaliy ko’nikmalarga ega bo’lganlik darajasi haqida ma’lumot beradi.

Malakaviy amaliyat tugagandan so’ng malakaviy amaliyat jurnali oxirida amaliyotga javobgar shaxs tomonidan talabaning ishi baholanadi va unga tavsifnomma yoziladi, u muassasa muhri bilan tasdiqlanadi va malakaviy amaliyat jurnali topshiriladi. Agar bajarilgan ishni ifoda etgan kundalik topshirilmasa, amaliyat o’tilmagan deb hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotni yakuniy baholashini tuzilgan komissiya amalga oshiradi. Komissiya a’zolari OTM rektori tomonidan buyruq asosida tuziladi.

Malakaviy amaliyotining yakuniy baholash natijalari komissiya tomonidan qaydnama varaqasiga kiritiladi va dastur direktori tomonidan reyting daftarchasiga to’ldiriladi. Malakaviy amaliyat dasturini (sababli, sababsiz) bajarmagan talabalar yakuniy baholashga kiritilmaydi va akademik qarzdor talaba sifatida muammolari magistratura bo’limi va rektorat tomonidan ko’rib chiqiladi va individual qaror qabul qilinadi (rasmiylashtiriladi).

Modul bo’yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari va baholash mezonlari.

Nº	O’zlashtirish %	Baxo	Talabantng bilimi
1.	a’lo 86-100%	5	Mavzu bo’yicha xulosa va qaror qabul qilish ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushoxada yuritish, amalda qo’llay olish moxiyatini tushunish, bilish aytib berish, tasavurga ega bo’lish. Mavzuni nazariy va amaliy to’liq o’zlashtirish, Mavzuni fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda yorita olish.
2.	YAxshi 71-85%	4	Mavzuni mustaqil mushoxada yuritish, amalda qo’llay olish moxiyatini tushunish, bilish aytib berish, tasavurga ega bo’lish Mavzuni nazariy va amaliy o’zlashtirish, Mavzuni fan, texnika va

			ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda yorita olish.
3.	Konikarli 70-56%	3	Mavzuni moxiyatini tushunish, bilish aytib berish, tasavurga ega bo'lish Mavzu boyicha nazariy va amaliy tushunchalarga ega bolish.
4.	Konikarsiz 55% dan kam	2	Mavzu bo'yicha aniq tasavurga ega emas, bilmaslik

4. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Pediatriyada intensiv davo moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Magistratura talabasi mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlarida trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish bayonnomalarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik bayonnomalarida aks ettirish;

- davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan bemorlar kuratsiyasida ishtirok etish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni, suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlar va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish va tayyorlash;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish, testlar tayyorlash va h.k.

- ToshPMI raxbaryati tomonidan talabalarga mustakil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun komp'yuter texnikasi va Internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

4.1. Mustaqil ta'lim mavzulari.

1 semestr

1. O'pkalar sun'iy ventilyatsiyasining zamonaviy tartiblari;
2. Kislota asos mo'tadilligi yoki ichki muxit aktiv jarayoni;
3. Efferent terapiya yoki qonga ekstrakorporal ta'sir usullari;
4. Gomeostaziologiyaning asosiy moxiyati;

2 semestr

5. Bolalar organizmining anatom-fiziologik xususiyati, klinik axamiyati va tekshiruv usullari;
6. Bolalar septik xolatlarida eferent terapiya asoslari;
7. Gemodinamikaning monitoringi;
8. Morgani – Adams – Stoks sindromi intensiv terapiyasi;
9. Koma xolatlarinig intensiv terapiyasi;

3 semestr

10. Nafas konturlari va sistemalari;
11. Operatsiyadan keyingi davrda uzaytirilgan o'pkalar ventilyatsiyasi;
12. Elektr jaroxati diagnostikasi va davolash standarti;
13. Kislota-asos mo'tadilligi;

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Pediatriyada intensiv davo fanining xususiyatlarini, xar bir rezidentning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini xisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

1.	O'pkalar sun'iy ventilyatsiyasining zamonaviy tartiblari.
2.	Kislota- asos mo'tadilligi yoki ichki muxit aktiv jarayoni.
3.	Efferent terapiya yoki qonga ekstrakorporal ta'sir usullari.
4.	Gomeostaziologiyaning asosiy moxiyati.
5.	Intensiv davo o'tkazishga ko'rsatmalar.
6.	Bolalarda tez-tez uchraydigan shoshilinch xolatlarning tasnifi.
7.	SHoshilinch xolatni tashxislash va shoshilinch davo - choralari bo'yicha xolatiy masalalar yechish.
8.	Pediatr shifokorga qo'yiladigan talablar.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Mustaqil ta'lim mavzulari talabalar tomonidan auditoriyadan tashqari o'zlashtiriladi va mavzuga oid joriy baholashda inobatga olinadi. Quyidagilar tavsiya etiladi:

- YAngi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullar va vositalarni aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqlarni ratsional yechimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini taxlil etish;
- Ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- Taqdimotlar tayyorlash;
- Masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

Mustaqil ta'limda o'quv qo'llanmalar, elektron adabiyotlar, mulyaj, simulyatorlar, asbob-anjomlardan: laringoskop, monitor, pul'soksimetr, niqoblar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, komp'yuter dasturlari, magistratura talabalarining navbatchilikda turib, bemorlarni ko'rishi.

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida magistratura talabasi kunma-kun Ishlab chiqarish amaliyoti jurnali shaklida to'ldirib boradi. Amaliyot rahbari tomonidan har bir amaliyot kuni davrida bajarilgan ishlar hajmi baholanadi va kundalik imzolanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti jurnalidagi ma'lumotlar talabaning amaliy ko'nikmalarga ega bo'lganlik darajasi haqida ma'lumot beradi.

Ishlab chiqarish amaliyoti tugagandan so'ng, ishlab chiqarish amaliyoti jurnali oxirida amaliyotga javobgar shaxs tomonidan talabaning ishi baholanadi va unga tavsifnomasi yoziladi, u muassasa muhri bilan tasdiqlanadi va ishlab chiqarish amaliyoti jurnali topshiriladi. Agar bajarilgan ishni ifoda etgan kundalik topshirilmasa, amaliyot o'tilmagan deb hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotni yakuniy baholashini tuzilgan komissiya amalga oshiradi. Komissiya a'zolari OTM rektori tomonidan buyruq asosida tuziladi.

Malakaviy amaliyotining yakuniy baholash natijalari komissiya tomonidan qaydnoma varaqasiga kiritiladi va dastur direktori tomonidan reyting daftarchasiga to'ldiriladi. Ishlab chiqarish amaliyoti dasturini (sababli, sababsiz) bajarmagan talabalar yakuniy baholashga kiritilmaydi va akademik qarzdor talaba sifatida muammolari magistratura bo'limi va rektorat tomonidan ko'rib chiqiladi va individual qaror qabul qilinadi (rasmiylashtiriladi).

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

5.1. Asosiy adabiyotlar:

№	Mualliflar	Qo'llanmaning, kitobning nomi
1.	Professor S.M.Stepanenko	«Anesteziologiya, reanimatologiya i intensivnaya terapiya u detey» Moskva 2016 yil.
2.	Dj. Edvard Morgan, Megid S. Mixail.	«Klinicheskaya anesteziologiya» Kniga pervaya. Per. pod redaksiyey A.A.Bunatyana. –2003 yil.
3.	Dj. Edvard Morgan, Megid S. Mixail.	«Klinicheskaya anesteziologiya» Kniga vtoraya Izdatel'stvo Binom Nevskiy Dialekt Moskva Sankt-Peterburg 2003
4.	Dj. Edvard Morgan, Megid S. Mixail.	Klinicheskaya anesteziologiya, kniga tret'ya. Izdatel'stvo Binom Nevskiy Dialekt Moskva Sankt-Peterburg 2003

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

№	Mualliflar	Qo'llanmaning, kitobning nomi
1.	Bryus Makkormik	«Algoritmi deystviy pri kriticheskix sostoyaniyax v anesteziologii» 2018 yil.
2.	Norbert Rever	«Atlas po anesteziologii» Perevod s nemetskogo 2013 yil.
3.	Sobirov SH.M., Otoxonov SH.E., Gozizova A.Z., Parpiyev A.G.	«SHoshilinch xolatlar» Toshkent 2006 yil.
4.	YU.S.Aleksandrovich	«Anesteziya v pediatrii» Sankt-Peterburg 2013 yil.
5	Mixel'son V.A., Grebennikov V.A.	«Detskaya anesteziologiya i reanimatologiya» Moskva 2009 yil.
6.	Mixel'son V.A.	«Intensivnaya terapiya v pediatrii» 2008 yil.
7.	Karl L.Gvinnut	«Klinicheskaya anesteziya» Perevod s angliyskogo A.E.Lyubovoy i prof. S.V.Sviridova 2014 yil.
8.	Raynera SHefera, Matiasa Eberxarda	«Anesteziologiya» Perevod s nemetskogo pod redaksiyey prof. O. A. Dolinoy 2009 yil.
9.	VaymanM.A. AvakovV.E.	Kriticheskiye i neotlojniye sostoyaniya v meditsine Toshkent 2003 yil.
10.	Gaba Devid M., Kevin Dj.Fish, Stiven K.Xauard	«Kriticheskiye situatsii v anesteziologii» Moskva 2000 yil.
11.	Dj.A.Gregori	«Anesteziologiya v pediatrii» Moskva 2003 yil
12.	Glumcher F.S., Treshinskiy A.I	«Rukovodstvo po anesteziologii» Moskva 2008 yil.

13.	Gel'fand B.R.	«Anesteziolgiya i intensivnaya terapiya» Moskva 2006 yil.
14.	Kurek V.V. Kulagin A.E.	Rukovodstvo po neotlojnim sostoyaniyem u detey Moskva 2012 yil.
15.	Polushin YU.S.	«Rukovodstvo po Anesteziologii i reanimatologii» Sankt-Peterburg 2004 yil.
16.	Barax Pol.D., Kullen Bryus.F.	«Klinicheskaya anesteziya» Moskva 2000 yil.
17.	Rid A.P., Kaplan Dj. A.	«Klinicheskiye sluchai v anesteziologii» Perevod s angliyskogo. Moskva 1995 yil.
18.	Djon ye.Tetslaf. MD.	«Spinozgovaya, epidural'naya i kaudal'naya Anesteziya» (perevod s angl.)
19.	N.P. Shabalov.	Neonatologiya. 1-2 tom., Sankt-Peterburg. 1997
20.	Pod red. Leona CHamedeysa	Amerikanskaya Assotsiatsiya Serdsya. Amerikanskaya Akademiya Pediatrii.

5.3. Internet saytlari:

Internet sayti:

<http://book.med-lib.ru/http://>

rmj.ru www.doctor.ru www.citomed.ru www.narcoz.ru www.respiration.ru possiblehelp/res/www.rambler/medical

www.infoart.ru/med/index.htm – "Doktor", jurnal dlya praktikuyushix vrachey
www.mediasphera.aha.ru/surgery/surg-mn.htm – Xirurgiya. Jurnal im. N.I.Pirogova
www.mediasphera.aha.ru/pediatr/ped-mn.htm – Rossiyskiy vestnik perinatologii i pediatrii

[Medical Matrix: Guide to Internet Clinical Medicine Resources](http://www.medicalmatrix.com)

[Medsinskaya matritsa](http://www.medslinks.ru) (ukazatel' med. resursov Interneta, russifitsirovanniy variant)

[U.S.National Library of Medicine](http://www.nlm.nih.gov) (Amerikanskaya meditsinskaya biblioteka)

[MedExplorer](http://www.medexplorer.com) - search engine for medicine related information (poisk meditsinskoy informatsii)

[WebDoctor](http://www.webdoctor.ru) - the Internet navigator for physicians (poisk meditsinskoy informatsii)

[Free MedLine access](http://www.ncbi.nlm.nih.gov) (biomeditsinskaya baza dannix)

PEDIATRIYADA INTENSIV DAVO MODULIDAN

SILLABUS

Pediatriyada intensiv davo			
Modulning to’liq nomi	Pediatriyada intensiv davo		
Modul kodi:	Kredit hajmi: umumiy -24 kredit. SHundan: JN –24kredit: ON - 0 (o’tilishi shart) YAN – 0 (o’tilishi shart)	Modul o’tilish davri: 2,3 va 4 cemestrlar	ECTS value: (ECTS dagi kredit soni)
Mutaxassislik	5A510203 Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi		magistratura talabasi
Modulning davomiyligi	24 xafta		
O’quv soatlari xajmi:	Jami soat: SHuningdek: ma’ruza amaliy mashg’ulot (seminar) mustaqil ta’lim	840 soat - 420 420 soat	
O’quv modulining statusi	2 modular bloki		
OTM nomi, manzili			
Kafedra nomi			
Mazkur kursning o’qituvchilari haqida ma’lumot	Amaliy mashg’ulot o’tkazuvchilarning F.I.SH. 1.	E-mail: E-mail:	
Mashg’ulot vaqt va joyi			
Modulning mazmuni	<p>Pediatriyada intensiv davo fani Anesteziologiya va reanimatologiya intensiv terapiya bilan bitta klinik fanning bir-biri bilan bog’liq bo’lgan bo’limidir. Anesteziologiya fanning tarkibiy qismi bo’lib, zamonaviy qarashlar bo’yicha operativ muolaja bilan bog’liq bo’lgan hayotiy muhim a’zolar faoliyatini o’rganish va boshkarishni ta’minlash, organizmni operatsion stressdan himoya qilishga yo’naltirilgan.</p> <p>Pediatriyada intensiv davo fanixar xil kritik holatlarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va davosini o’rganadi.</p> <p>Anesteziologiya va reanimatologiya sohasidagi mutaxassislar xirurgiya va akusherlik – ginekologik hamma bo’limlarida zamonaviy anesteziologik qo’llanmalarni ta’minlay bilishlari va shoshilinch holatlarda diagnostik va ixtisoslashgan shoshilinch yordam ko’rsata olishlari lozim.</p> <p>Amaliy o’qitish (magistrlik amaliyoti) kasalxonalarning diagnostik va anesteziologik va reanimatologik yo’nalishdagi bolalar bo’limlarida o’tkazilib, bu yerda magistrlar har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko’nikmalar ro’yxatiga ko’ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo’shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, davolash diagnostika muolajalarni amalga oshiradilar.</p>		
Prerekvizitlar	Modulga patologik fiziologiya, bolalar propedevtikasi fanlari nazariy qismi hisoblanadi.		

Postrekvizitlar	Pediatriyada intensiv davo moduli keyinchalik bolalar propedevtikasi, bolalar gospital pediatriya va bolalar fakul'tet pediatriyasi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.
Modulning maqsadi	Modulni o'qitishdan maqsad – yuqori malakali bolalar anesteziolog-reanimatologi shifokorini tayyorlash. Bolalar anesteziolog-reanimatolog shifokori zamonaviy ilm va amaliyotga bo'lgan talablarga javob berib, zamonaviy klinik tekshirish usullarni, tibbiyotda qo'llanilayotgan yangi texnologiyalarni qo'llashni, bolalarda uchraydigan turli kasalliklarda mustakil ravishda intensiv davo o'tkazish metodlarini mukammal bilishlari kerak.
Modulning vazifalari	<ul style="list-style-type: none"> - bolalarda uchraydigan turli kasalliklarda oid ularning og'ir variantlari, premorbid xolga bog'liq xolda har-xil shaklda kechishi, o'ziga xos klinik alomatlarga ega bo'lganligi, aloxida alomatlар va sindromlarning differensial diagnostik axamiyatini, funksional diagnostikasi va laborator diagnostikasini, xamda kasalliklarda noan'anaviy davo o'tkazish uslublari, tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini to'liq egallagan, yuqori malakali bolalar anesteziolog- reanimatolog mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishni; - O'zR SSV tizimida bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi yo'nalishga mo'ljallangan turli bo'limlari, shu bilan birga, viloyat, tuman bolalar shifoxonalarida va markazlarida, shaxar akusherlik komplekslarini ma'muriy boshqarish, Davlat ilm-fan va ta'lim qo'mitalarida ishlashni; - tibbiyot oliy o'quv yurtlari kafedralarida pedagogik faoliyat ko'rsatishni; - mutaxassis shifokorlar bilan hamkorlikda bolalardagi turli kasalliklarni tashhislash, davolash va oldini olishning yangi texnologiyalari bo'yicha tematik sikllar, uslubiy seminarlar va maslahatlarni tayyorlash va o'tkazish, audit o'tkazishni; - intensiv davo o'tkazilishi kerak bo'lgan bemor bolalarga ambulator va statsionar sharoitida kerakli va adekvat intensiv davo muolajalarini amalga oshirishni; - bolalarda turli intensiv davo o'tkazishni talab qiladigan patologik holatlarini va bolalarda turli somatik kasalliklarni tashhislash, davolash va profilaktikasi bo'yicha yangi texnologiyalarni qidirish va ishlab chiqish, olingan natijalar va tekshiruvlar natijalarini tahlil etish, jamlash va amaliyotda qo'llashga erishishni; - bolalarda turli intensiv davo o'tkazishni talab qiladigan patologik holatlarini va bolalarda turli somatik kasalliklarni kelib chiqish xavf omillari bo'yicha tekshiruvlarni, shu bilan bir qatorda ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni; - bolalarda har-xil kasalliklardan keyingi asoratlar, yondosh ichki a'zolar kasalliklari, shuningdek xafv omillarini, patogenezini o'rganish va patologik jarayonlarni modellashtirishni o'zlashtirish bilan tanishtirishdan iborat.
Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Talaba tasavvurga ega bo'lishi kerak: - sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati haqida; - O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari) haqida;

- sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan isloxoxtlar haqida;
- sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to'g'risida;
- tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo'nalishlari, ichki a'zolar kasalliklari diagnostikasi va davolashda yangi texnologiyalari haqida;
- shoshilinch holatlarga moyillik tug'diradigan har xil yoshdag'i bolalarni anatomo-fiziologik hususiyatlari va xavf omillari;
- xavfli holatlar va shoshilinch holatlar bo'lgan bolalarni saralash;
- bolalardagi shoshilinch holatlarni patometrologiya asoslari (hisoblash tashxisoti va bashorati). SHoshilinch holatlar bo'lgan bolalarni avtomalashtirilgan masofali maslahatlash tizimi;
- bolalarda shoshilinch holatlarni rivojlanishini etiopatogenetik mexanizmlari;
- bolalardagi shoshilinch holatlarni klinik laborator tashxis usullari va monitoringi;
- bolalardagi shoshilinch holatlarni yakuni;
- shoshilinch yordam va intensiv davo sifatida qo'llaniladigan dori vositalarni va apparat – instrumental usullarni bolani organizmiga ta'siri;
- shoshilinch yordam ko'rsatilayotganda ishlatilayotgan asbob – uskunalarни texnika xavsizligi;
- bolalar o'limini kamaytirish yo'llari va zahiralari;
- favqulodli vaziyatlarda tibbiy qutqarish xizmatini tashkil qilish usullari
- **Talaba bilishi shart:**
- vrachlik amaliyotida «komanda» bo'lib ishslash tamoyillarini;
- ichki a'zolar kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
- ichki a'zolar kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezinining zamonaviy teoriyasini, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini o'tkazishni
- **Talaba bajara olishi lozim:**
- maxsus tekshirish usullar va fizikal tekshiruv protokoli asosida xavfli holatlarni aniqlash. Kerakli yordam hajmini va xavf darajasini aniqlashni;
- shoshilinch holatlarga davolash – tashxisot muolajalarini o'tkazish va shifoxonaga yetkazishni;
- shoshilinch holat o'tkazgan bola sog'lig'ini qayta tiklash rejasini tuzishni;
- favqulodli vaziyat o'chog'ida va evakuatsiya bosqichlarida tashkiliy, davolash chora-tadbirlar o'tkazishni
- reanimatsion bemorlarga rehabilitatsion tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, tibbiy hujatlarni yuritish;
- **Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:**
- sun'iy nafas apparatida o'pkani adekvat ventilyatsiyasi va uning monitoringini o'tkazish;
- nafas to'xtaganda Ambu qopchasi yordamida sun'iy nafas berish;

	<ul style="list-style-type: none"> - gemodinamikani monitoringini o'tkazish; - traxeya intubatsiyasi texnikasi va qo'llash; - traxeya ekstubatsiya texnikasi va traxeobronxial daraxt sanatsiyasi; - bolalar venepunksiya, veneseksiya, periferik va markaziy venalar kateterizatsiya texnikasi; - terminal holat va klinik o'limda yurak-o'pka reanimatsiyasi: asosiy va ixtisoslashtirilgan usullarni amalga oshirish; - yurakni bilvosita massajini qo'llash; - me'dani zond yordamida bo'shatish va yuvish; - - kon guruxi va rezus mansublikni aniqlash; - qon va qon preparatlarini tomir ichiga quyish; - plevral bushliqni punksiyasi va naychalash; - bemorlarni nazogastral zond orqali oziqlantirish; - yosh bolalarda qon bosimini o'lchash; - bolalarda duodenal zondlash texnikasi va qo'llash; - siyidik qopi uretral kateter yordamida kateterizatsiyasi; - qo'zgalish kuzatilgan bemorlar fiksatsiyasi, ularda ogizni ochish va tilni ushlovchi moslamalarni qo'llash;
Ta'lim berish usullari	An'anaviy ta'lim, interfaol usullar, zoom identifikatori orqali onlayn dars olib borish.
Ta'minot	

O'qitish natijalari:

Modulni yakunlaganda talaba biladi:

- ichki a'zolar va tizimlarning sindromli yetishmovchiligidagi zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
- ichki a'zolar kasalliklarining asoratlarga xolatlari epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillarini, patogenezinining zamonaviy teoriyasini, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini o'tkazishni;

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

- yuqori nafas yo'llarini erkin o'tkazuvchanligini ta'minlashni;
- reanimatsion bemorlarga ayrim davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, qo'shimcha tekshirish (laborator, morfologik, funksional, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik) natijalarining interpretatsiyasi, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida kompleks individuallashtirilgan davolashni mustaqil amalga oshirishni;
- reanimatsion bemorlarga reabilitatsion tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, tibbiy hujjatlarni yuritishni.